

O'QUVCHILARDA TINGLAB TUSHINISH MALAKASINI BOSQICHMA-BOSQICH SHAKLLANTIRISH

<https://doi.org/10.70728/conf.v2.i02.043>

Sa'dullayeva Fayyoza Maxmadoli qizi

Toshkent shahri Shayxontohur tumani

136-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarining tinglab tushinish malakalarini bosqichma-bosqich shakllantirish haqida ba'zi mulohazalar berib o'tiladi. Tinglab tushinishga oid fikr-mulohaza va takliflar sinf darajalari kesimida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: tinglab tushinish, orfoepiya, orfografiya, fonetika, grafika, audiomaterial, integratsiya.

Ona tili fanida o'quvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan 4 ta nutq malakasi (tinglab tushinish, o'qish, gapirish, yozish)dan biri tinglab tushinishdir. Inson nutqni idrok qilishida tinglab tushinish, o'qib tushinish, nutqni yozma va og'zaki bayon qilish kabi lisoniy malakalar muhim o'rin tutadi.⁸ Ona tili fani o'quvchilarda birinchi sinfdan boshlab o'qitilsa-da, ularda tinglab tushinish malakasi maktabga kelguncha ma'lum darajada shakllangan bo'ladi. Bola maktabga kelgandan so'ng dastlab "Alifbe" kitobini o'qishni o'rganishdan boshlab tinglab tushinishni birinchi bosqichini egallay boshlashadi. Chunki, "Alifbe" kitobidagi harflar bolaga noma'lum bo'lgan holda o'qish jarayoni bolada ko'rish va eshitish qobiliyati uyg'unlashgan holda olib boriladi. O'quvchi dastlab harflarni o'qituvchi tomonidan talaffuz qilib bergandan so'ng tinglab tushinish asosida o'rganadi. Bola harflarni, talaffuzni va yozishni o'rganishni davom etar ekan bu jarayon ona tili fanining ma'lum bo'limlari doirasida o'rganilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar uyg'unligida amalga oshiriladi.

Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi tomonidan yaqinda ishlab chiqilgan va keng jamoatchilik muhokamasiga qo'yilgan Milliy o'quv dasturlari loyihasida ham 1-11- sinf o'quvchilarining tinglab tushinish bo'yicha qanday nutqiy kompetensiyalarga ega bo'lish kerakligi belgilangan. Quyida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tinglab tushinish malakalarini bosqichma-bosqich shakllantirish haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Unga ko'ra birinchi sinf o'quvchisi uchun qo'yiladigan

⁸ 1. Aziza Murodova "5-sinf o'quvchilarida eshitib tushinish malakasini shakllantirishning nazariy va metodik asoslari" magistrlik dissertatsiyasi. Toshkent, 2020. 15-bet

dastlabki talablardan biri tinglangan tovushlarni o'zaro farqlash va harflarga moslashtira olish⁹. Shunday ekan birinchi sinfni tugatgan o'quvchilar eshitgan har bir tovushini tushuna olish va yoza olishi kerak. Bundan tashqari suhbatlashish qoidalariga rioya qilish (bir-birini hurmat qilish, so'zga chiqishni istashini hurmat bilan so'rash), xabar, buyruq, so'roq ohanglarini farqlash, berilgan savolni tushunish va tartibli javob bera olish, jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g'oyasini ayta olish ham talab etiladi. Bu esa o'quvchilarga fonetika va grafika bo'limlarini uzviy holda o'qitilishini ta'minlaydi.

2-sinf o'quvchisiga qo'yiladigan talablarga suhbatni tinglab tushuna olish, zarur o'rinlarni qayd qila olish; tinglangan monologik nutq va suhbatdan so'zlovchining nutq ohangini belgilay olish [2.23] kabi talablar kiradi. Bundan ma'lum bo'ladiki, 2-sinf o'quvchilarida tinglab tushinish malakalari orfoepiya va orfografiya bo'limlari integratsiyasi asosida ro'y beradi.

3-sinf o'quvchisiga qo'yiladigan talablarga yuqoridagi malakalarga qo'shimcha ravishda tinglangan matnda qo'llangan zid ma'noli, shakldosh va ma'nosi yaqin so'zlarni sharhlay olish; tinglangan materialga mos rasm, chizma, belgi va shakllarni tanlay olish [2.24]ni kiritishimiz mumkin. E'tibor berib qaraydigan bo'lsak so'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini farqlash orqali bolada leksikologiya bo'limi haqida tushuncha hosil bo'lib boradi. Albatta bu jarayon dars davomida mashq va topshiriqlar bajarish orqali shakllantiriladi. Tinglangan materialga mos rasm, chizma, belgi va shakllarni tanlay olish orqali esa bola geometriya, tasviriy san'at fanlarining integratsiyasi asosida tinglab tushinish malakasini o'zida shakllantiradi.

4-sinf o'quvchisi tinglangan audiomaterialni og'zaki aytib bera olish va matn ko'rinishida yozib bera olish, tinglangan matnda qo'llangan zid ma'noli, shakldosh va ma'nosi yaqin so'zlarni sharhlay olish; berilgan savolni tushunish va mantiqli javob bera olish; matn, hikoya va ertaklardagi qahramonlarni tasvirlay olish; jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g'oyasini ayta olish; ibora, maqol va hikmatli so'zlarning ma'nosini tushunish; tinglangan materialga mos rasm, chizma, belgi va shakllarni tanlash va izohlay olish; ma'lum qismi berilgan matnni davom ettira olish [2.26] kabi talablar qo'yiladi. Bu ham o'quvchilarda orfoepiya, orfografiya, leksikologiya bo'yicha kerakli ko'nikmalarni shakllantirish barobarida olib boriladi. Bundan tashqari tasviriy san'at, mantiq fanlari integratsiyasi asosida bolada turli xil ko'nikmalarning shakllanishiga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ona tili fanini o'quvchilarga o'rgatish barcha tilshunoslik bo'limlari integratsiyasi asosida olib boriladi. Bu esa o'quvchilarda ona tili fanidan o'rgangan bilimlari asosida tilshunoslik bo'limlarining keyingi bosqichlarda

⁹ Ona tili fanidan Milliy o'quv dasturi loyihasi. 20-26-betlar

o'rganish uchun poydevor vazifasini o'taydi. Milliy o'quv dasturi mazmuni ellik foiz nazariy va ellik foiz amaliyotdan iborat bo'ladi va o'quvchilarning mustaqil faoliyatini qo'llab quvvatlashga qaratilgan. Shu asosida tayyorlanayotgan ona tili darsliklarida o'quvchidan avvalgidek faqat nazariy bilimlarni o'rganishni talab qiladigan grammatika oid mashq va topshiriqlar emas, balki tinglab tushinish, o'qish, gapirish ko'nikmalarini rivojlantiradigan mashq va topshiriqlar ustida ishlash talab qilinmoqda. Buni biz yangilanayotgan ona tili darsliklari misolida ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aziza Murodova "5-sinf o'quvchilarida eshitib tushinish malakasini shakllantirishning nazariy va metodik asoslari" magistrlik dissertatsiyasi. Toshkent, 2020. 15-bet
2. Ona tili fanidan Milliy o'quv dasturi loyihasi. 20-26-betlar.

